

Iroda Nosirova

"Kel"

Visit "[Kel](#)" on MotoLyrics.com

Muhabbat yo'llari chalkash, adoqsiz,
Sarobda adashib, yurarman yolg'iz,
Izlarim ko'l bo'lib ketadi, esiz,
Qora qismat visolingni qizg'onar,
Seni desam, hasratlarim uyg'onar. Tushlaring
tushimga kiradi har kez,
Hajring qoshida ojizman, ojiz.
Muhabbat yig'laydi, yig'laydi sensiz,
Hasratingdan bor vujudim to'lg'onar,
Seni desam, hasratlarim uyg'onar. Kel! Kunlarimning
ma'nosi o'zingsan!
Kel! Tunlarimning sabosi o'zingsan!
Kel! Ko'zlarimning qarosi o'zingsan!
Xayolimdan bir zum ketmasang,
Netay, netay, netay! Ohlarim oy tomon o'rmalar unsiz,
Oyning yuzi ham to'lmasdir bejiz,
O'kingan orzular - oydan olis,
Yulduzlarga armonlarim cho'lg'onar,
Seni desam, hasratlarim uyg'onar.

Visit [Iroda Nosirova](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.